



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

PRESUPPOZITSIYA TURLARI VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Jonridova Sanobar Sherali qizi

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: jonridovas.@gmail.com

Tel: +998905350424

ORCID: 0009-0006-3595-1334

Farg'ona. O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda presuppozitsiya hodisasining lingvistik tabiati, uning turlari, semantik-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Presuppozitsiya nutqda bevosita ifodalanmagan, ammo so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oldindan qabul qilinadigan yashirin axborot sifatida talqin qilinib, uning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, nutqning implitsit qatlamini shakllantirishdagi roli, uning kontekst, fon bilimi va kommunikativ vaziyat bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari presuppozitsiya hodisasini chuqurroq anglash va nutq jarayonida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pragmatika, semantika, kognitiv tilshunoslik, presuppozitsiya, kommunikatsiya, yashirin ma'no.

TYPES OF PRESUPPOSITION AND THEIR LINGUISTIC CHARACTERISTICS

Jonridova Sanobar Sherali qizi

Doctoral Candidate, Kokand State University

Ferghana, Uzbekistan

Annotation. This paper analyzes the linguistic nature, types, and semantic-pragmatic characteristics of the phenomenon of presupposition. It examines presupposition as implicit information—not explicitly stated in speech but mutually accepted beforehand by the speaker and the listener—and highlights its role in modern linguistics. Furthermore, the study demonstrates its function in shaping the implicit layer of discourse and its relationship with context, background knowledge, and the communicative situation. The research findings contribute to a deeper understanding of presupposition and expand the possibilities for its application in the process of communication.

Keywords: pragmatics, semantics, cognitive linguistics, presupposition, communication, implicit meaning.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i13/n18>

Kirish. Presuppozitsiya pragmalingvistikadagi muhim va asosiy tushunchalardan biri bo'lib, kommunikantlar xotirasida kontekstni to'liq tushunilishi uchun oldindan mavjud bo'lgan, lekin bevosita aytilmagan ma'lumotlar yig'indisi, yashirin qatlam hisoblanadi. Presuppozitsiya hodisasi taxminiy fikrlashga asoslangan ikki taklif o'rtasidagi munosabat sifatida qaralib, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi umumiy bilim fondiga tayanadi, nutqning mazmuniy aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Presuppozitsiya tilshunoslikning uch yo'nalishi semantika, kognitiv tilshunoslik, pragmatika kesishgan nuqtada o'rganiladi. Chunki u gapning bevosita ma'nosi bilan bir qatorda, uning bilvosita ifodalangan ma'nosini ham ochishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ham presuppozitsiya hodisasi tabiati va uning turlarini aniqlash til birliklarining funksional imkoniyatlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Presuppozitsiya lotincha joylashtirish, qo'shish so'zlaridan olingan bo'lib, kontekstda qo'shimcha ma'no mavjudligini ta'minlaydigan, oldin mavjud bo'lgan bilim va faktga ishora qiluvchi zaruriy semantik komponent hisoblanadi. Kommunikatsiya egalariga sintaktik strukturani ixchamlashtirish, til birliklarini nutqiy vaziyatda tejash imkonini beradi, tilning ichki imkoniyatlarini boshqa til egalariga ko'rsatib berishga xizmat qiladi. U haqidagi dastlabki

qarashlar G.Frege g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, haqiqat tushunchasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Matematik-mantiq sohasidagi modus ponens va modus tollens tushunchalari asosida tilshunoslikka kirib kelgan presuppozitsiya hodisasi gapning haqiqat qiymatining mavjudligi uchun semantik shart, mantiqiy bog'lanish, muloqot jarayonida zarur bo'lgan pragmatik shart sifatida tushuniladi. Z.Demyankov presuppozitsiyani mantiqiy presuppozitsiya, pragmatik presuppozitsiya, semantik presuppozitsiya kabi turlarga bo'lib tasniflaydi. E.Paducheva esa pragmatik hamda semantik presuppozitsiyalarni farqlab, tahlilga tortadi. "Agar S gapning P komponentini to'g'ri va tushunarli deb hisoblasa, gapning semantik P komponenti S ning pragmatik presuppozitsiyasidir." [5,1-20.] N.Valgina esa presuppozitsiya hodisasini "matnni yetarlicha idrok etish imkonini beruvchi vosita" [2,11] sifatida baholaydi. Shuningdek, kommunikantlarning fon bilimlarini tasniflash mezonini sifatida ko'rsatadi. E.Vereshagin va Kostomarovlar esa presuppozitsiya hodisasiga asos bo'ladigan, uni yuzaga keltiradigan bilim shakllarini universal bilimlar, mintaqaviy bilimlar, mamlakatga xos bilimlar va ijtimoiy bilimlar kabi to'rt guruhga bo'lib o'rganadi. [3, 160-165] Bundan tashqari, tilshunoslikda presuppozitsiya hodisasi "umumiy bilimlar jamg'armasi", "dastlabki kelishuv", "nutq aktida til hodisalari va tillararo hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan munosabatlar" kabi nomlar bilan yuritiladi.

Presuppozitsiya bir necha turlarga bo'linib, ular yuzaga kelish usullari va semantik vazifasiga ko'ra farqlanadi. T.Jerebiloning "Словарь лингвистических терминов" deb nomlangan tilshunoslikka oid lug'atida presuppozitsiyani oldindan taxmin qilish, keng ma'lumot deya ta'riflaydi hamda madaniy, mahalliy va kasbiy taxmin kabi turlarga ajratadi. Madaniy presuppozitsiya – muayyan xalqning tarixi, an'analari va ma'naviy hayoti haqidagi dastlabki bilimlar, shuningdek, ma'lum bir mamlakat aholisi orasida keng tarqalgan boshqa xalqlarning hayoti haqidagi o'xshash ma'lumotlar. Mahalliy presuppozitsiya – muayyan hudud yoki mamlakatning geografiyasi, flora-faunasi, iqlimi, toponimiyasi va boshqa xususiyatlari haqida ma'lumot. Kasbiy presuppozitsiya mutaxassislarning moddiy yoki ma'naviy faoliyati mavzusi bo'yicha dastlabki bilimlar yig'indisi." [4. 277-278]

Demak, presuppozitsiyada kommunikantlarning ekstralingvistik va lingvistik bilimlari bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, ularning ijtimoiy tajribasiga aoslangan hodisa ekan. G.Yule presuppozitsiyani yetti turga ajratib tahlilga tortadi.

1. Potensial presuppozitsiya;
2. Ekzistensial presuppozitsiya;
3. Faktiv presuppozitsiya;
4. Leksik presuppozitsiya;
5. Struktural presuppozitsiya;
6. Qarama-qarshi faktiv presuppozitsiya. [1, 27-29]

Mavjudlik presuppozitsiyasi kontekstda tilga olingan shaxs, narsa yoki hodisaning mavjudligini oldindan taxmin qiladi. Bu turdagi presuppozitsiyalar egalik shakllari, otli birikmalar orqali yuzaga keladi, shuningdek, kommunikantlarning diqqatini muayyan obyektga qaratadi. Misol uchun Asror yangi velosiped sotib oldi. Ushbu gapda Asror ismli bolaning mavjudligi, endi unda velosiped borligi kabi ma'nolar anglashiladi.

Faktiv presuppozitsiya gapda ifodalangan voqea yoki vaziyatning haqiqat sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydi. Bu tur asosan bilish, anglash, sezish kabi ma'nodagi fe'llar bilan anglashiladi, so'zlovchining voqelikka munosabatini aks ettirib, nuqtda subyektiv baho,

emotsional munosabat, pragmatik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, uning ko'zlari qizargan edi. Ya'ni ko'zlar kuchli uyqusizlikdan, ko'p ko'z yosh to'kishdan yoki kasallik tufayli qizarish holatiga kelishi mumkin. Presuppozitsiya mavjud vaziyatni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Takroriy presuppozitsiya biror ish-harakatni avval ham sodir bo'lganligini bildiradi. Mazkur tur vaqt davomiyligi, qayta yuz berish ma'nolarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Qarama-qarshi faktiv presuppozitsiyada esa oldindan taxmin qilingan narsa nafaqat haqiqat emas, balki haqiqatga zid bo'lgan narsaning aksi ekanligini anglatadi. Bu turdagi presuppozitsiya shart ergash gaplar orqali hosil qilinadi. G.Yule strukturaviy presuppozitsiyani so'roq olmoshlari orqali hosil qilishini ta'kidlaydi.

Presuppozitsiya turli lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Ularga fe'ning semantik xususiyatlari, takroriylikni ifodalovchi so'zlar, egalik shakllari, kontekstual bog'lanishlar kiradi. Bu vositalar gapning yuzaki ma'nosidan tashqari, uning yashirin mazmunini ham yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya til birliklarining chuqur semantik tuzilishini, ularning pragmatik funksiyasi hamda nutqdagi yashirin axborot uzatish mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Shu jihatdan ham presuppozitsiya masalalari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yule G. Pragmatics. Oxford university 1996, 27-29 page.
2. Валгина Н.С. Теория текста. М.: Логос, 2003. С. 11
3. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. М.: Русский язык, 1983. С. 160-165.
4. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов Издание 5-е, исправленное и дополненное Назрань Издательство ООО «Пилигрим» 2010, 277-278-bet.
5. Падучева Е. В. Понятие презумпции в лингвистической семантике // Семиотика и информатика. — 1977. — № 8. С. 1-20.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.